

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALARI VAZIRLIGI**

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**



**IQTISODIY XAVFSIZLIK  
FANINING O‘QUV DASTURI**

<b>Bilim sohasi:</b>	400000	– Biznes, boshqaruv va huquq
<b>Ta‘lim sohasi:</b>	410000	– Biznes va boshqaruv
<b>Ta‘lim yo‘nalishlari:</b>	60410800	– Menejment
	60410100	– Iqtisodiyot

**Toshkent-2025**

<b>Fan/modul kodi</b> IQXI505		<b>Semestr</b> 5	<b>ECTS-kreditlar</b> 5	
<b>Fan/modul turi</b> majburiy		<b>Ta'lim tili</b> O'zbek, rus	<b>Haftadagi dars soatlari</b> 4	
1.	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	<b>Iqtisodiy xavfsizlik</b>	60	90	150
2.	<p><b>I. Fanning mazmuni:</b></p> <p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> – Bu talabalarga makro-, mezo-mikro-darajalarda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning nazariy va amaliy asoslarini, iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari, chegaraviy qiymatlari, iqtisodiy xavfsizlikni baholash usullari, korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlarini o'rgatish hamda ularni amalda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilish.</p> <p><b>Fanni vazifasi</b> – Fanning tarkibini iqtisodiy xavfsizlikning mazmuni va mohiyati, iqtisodiy xavfsizlik shakllari va uni ta'minlovchi organlar, korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, axborot xavfsizligini ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari, xufyona iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurash hamda tashqi iqtisodiy xavfsizlik va raqobatbardoshligini ta'minlash faoliyatini o'rganish kabi jihatlarni o'z ichiga qamrab oladi.</p> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu. "Iqtisodiy xavfsizlik" faniga kirish, iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati va tarkibiy elementlari</b> Iqtisodiy xavfsizlik fanining maqsadi, predmeti va vazifalari. Iqtisodiy xavfsizlikning mazmuni va mohiyati. Iqtisodiy xavfsizlik fanining tarkibiy e'lementlari.</p> <p><b>2- mavzu. Iqtisodiy xavfsizlik shakllari va asosiy korsatkichlar</b> Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo'lish shakllari. Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional sharoitlarining yaratilishi. Iqtisodiy xavfsizlik kontsepsiyasi.</p> <p><b>3-mavzu. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va iqtisodiy xavfsizlik.</b> Jahon iqtisodiyotida davlatni tartibga solish usullari. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda davlatning asosiy vazifalari. O'zbekistonda Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari.</p>			

#### **4- mavzu. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi.**

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi: tushunchasi, ob'yekti, sub'yekti, turlari. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillar. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ifodalovchi iqtisodiy indikatorlar va ularning chegaraviy qiymatlari. Mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish.

#### **5-mavzu. Shaxsning iqtisodiy xavfsizligi.**

Shaxsning erkinliklari va iqtisodiy mustaqilligi. Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mohiyati va ahamiyati. Shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash yullari va vositalari. Mehnatga layoqatli aholining ish bilan bandligining oshishi va ishsizlikning kamayishi.

#### **6-mavzu. Aholi turmush darajasi iqtisodiy xavfsizlikning ijtimoiy indikatorlari sifatida.**

Aholining turmush darajasi xolati va yashash darajasi. Mamlakatda axolining ijtimoiy va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari. Axolining iste'mol xarajatlari. Axolining turmush darajasini oshirish mexanizmi.

#### **7-mavzu. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar iqtisodiy xavfsizligi.**

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar iqtisodiy xavfsizligi tushunchasi va tarkibi. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar iqtisodiy xavfsizlik darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar va mezonlar. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi taxdidlar. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasi.

#### **8-mavzu. Moliyaviy xavfsizlik**

Moliyaviy xavfsizlik tushunchasi. Moliyaviy xavfsizlik tipologiyasi. Mamlakat moliyaviy xavfsizligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar. Mamlakat moliyaviy xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillar. Pul muomalasi soxasidagi iqtisodiy taxdidlar. Pul tizimi komponentlari. Moliya, pul- kredit tizimida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash dastaklari.

#### **9 - mavzu. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash tizimida investitsion va innovatsion faoliyat.**

Davlatning investitsion va innovatsion siyosati: investitsion jarayonlarni boshqarish usullari. Investitsion va innovatsion faoliyatni rivojlantirish va davlatning iqtisodiyot xavfsizligini ta'minlash. Innovatsiyalarni joriy qilish va uning xavfsizligini ta'minlash masalalari.

#### **10- mavzu. Oziq-ovqat xavfsizligi.**

Oziq-ovqat xavfsizligining iqtisodiy ahamiyati va uni ta'minlash muammolari. Aholining muhim kundalik iste'mol tovarlariga bulgan talabi va uni qondirish. Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bulgan talabini ta'minlovchi asosiy tarmoqlar. Oziq-ovqat mahsulotlari sifati va uni nazorat qilish. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda rivojlangan davlatlar tajribasi.

**11- mavzu. Xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish - iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy omili.**

Xufyona iqtisodiyotning mazmuni va vujudga kelish sabablari. Xufyona iqtisodiyot doirasida amalga oshiriladigan operatsiyalar. Kuzatilmagan xufyona iqtisodiyot. Noqonuniy ishlab chiqarish. Fiktiv iqtisodiyot. Xufyona iste'mol. Xufyona iqtisodiyotga qarshi qurash usullari.

**12 - mavzu. Korrupsiya va demokratik boshqaruv**

Korrupsiya hamma joyda uchraydi. U har doim mavjud bo'lgan va deyarli istalgan joyda uchratish mumkin bo'lgan umumiy hodisadir. So'nggi yillarda korrupsiya va demokratik boshqaruv o'rtasidagi munosabatga katta e'tibor qaratilmoqda. Darhaqiqat, korrupsiya va umuman siyosat bir-biridan ajralmas va universal tarzda o'zaro bog'langan.

**13-mavzu. Noqonuniy yo'l bilan topilgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish - iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash omili sifatida.**

Noqonuniy yo'l bilan topilgan daromadlarni legallashtirish tushunchasi, belgilari va xususiyatlari. Noqonuniy yo'l bilan topilgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishni huquqiy tartibga solish tajribalari. O'zbekiston Respublikasida noqonuniy yul bilan topilgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish soxasida me'yoriy- xukukiy bazaning shakllanishi va rivojlanishi.

**14-mavzu. Axborot xavfsizligini ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari.**

Axborot resurslariga taxdidlar. Axborot xavfsizligiga taxdid ob'ektlari. Axborot xuruji. Axborot quroli. Axborot xavfsizligini ta'minlash yo'nalishlari.

**15-mavzu. Xavfsizlikni o'rganish bo'yicha kompleks tahlil**

Xavfsizlik tadqiqotlari sohasi mustaqil quyi yo'nalish sifatida nisbatan yaqinda shakllangan bo'lsa-da, u keng qamrovli, doimiy ravishda rivojlanib boruvchi va bir nechta ilmiy sohalarga tayanadigan yo'nalishdir. Ushbu kurs avvalo talabalarga xavfsizlikka tanqidiy yondashuvlarda qo'llaniladigan ayrim nazariyalarni tanishtiradi. Ular orasiga Kritik nazariya, sekyuritizatsiya, interpretativ reliesionalizm, poststrukturalizm, feminizm va gender yondashuvlari, hamda postkolonializm kiradi. Shundan so'ng, kurs ushbu nazariy ko'zgu orqali turli darajalarda kuzatiladigan asosiy xavfsizlik muammolarini tahlil qiladi (individ, mahalliy daraja, davlat, mintaqaviy, xalqaro va global daraja).

**III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Iqtisodiy xavfsizlik" faniga kirish, iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati va tarkibiy elementlari
2. Iqtisodiy xavfsizlik shakllari va asosiy ko'rsatkichlar
3. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va iqtisodiy xavfsizlik
4. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi
5. Shaxsning iqtisodiy xavfsizligi
6. Axoli turmush darajasi iqtisodiy xavfsizlikning ijtimoiy indikator sifatida
7. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar iqtisodiy xavfsizligi
8. Moliyaviy xavfsizlik
9. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash tizimida investitsion va innovatsion faoliyat
10. Oziq-ovqat xavfsizligi
11. Xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish - iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy omili
12. Korrupsiya va demokratik boshqaruv
13. Noqonuniy yo'l bilan topilgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish - iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash omili sifatida
14. Axborot xavfsizligini ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari
15. Xavfsizlikni o'rganish bo'yicha kompleks tahlil

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilinishi maqsadga muvofiq.

#### **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari.
3. Iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi ichki va tashqi taxdidlar.
4. Globallashtirish jarayonlarining mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligiga ta'siri.
5. Investitsion siyosatning mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashdagi roli.
6. Iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari va ularning taxdili
7. Iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirilishining iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati.
8. Globallashtirishning mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligiga ta'siri.
9. Iqtisodiy xavfsizlik strategiyasida ijtimoiy siyosatning o'mi.
10. Iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash omili.
11. Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalalari.
12. Iqtisodiy xavfsizlik va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish
13. Ishsizlik iqtisodiy xavfsizlikning ijtimoiy indikator.
14. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirilishining iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati.

	<p>15. Jahon moliyaviy iqtisodiy inkirozidan keyingi davrda moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash masalalari.</p> <p>16. Inson taraqqiyotini ta'minlash va ijtimoiy xavfsizlik o'rtasidagi bog'liqlik masalalari.</p> <p>17. O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari.</p> <p>18. Iqtisodiy xavfsizlik tizimida ekologik xavfsizlikning tutgan o'rni.</p> <p>19. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi.</p> <p>20. Axolining turmush darajasi va sifatini oshirishning ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati.</p> <p>21. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash tizimida shaxs xavfsizligi masalalari.</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>
3.	<p><b>V. Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalari</b></p> <p><b>Talaba bilishi kerak:</b></p> <p>Iqtisodiy xavfsizlik kategoriyalarini bilishi va tushunishini namoyish etish; iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga tegishli huquqiy-me'yoriy hujjatlarni bilish va iqtisodiy-huquqiy terminologiyadan foydalanish; xufyona iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurashish; iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda xorijiy tajribasini qo'llay olishi; xavfsizlikni ta'minlashda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning amal qilish xususiyatlari; <i>haqida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)</i></p> <p>Makro-, mezo-, mikro-darajalarda iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etadigan ichki va tashqi omillarni; iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha yechimlar qabul qilish. Bundan tashqari talabalar jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlarni, yangiliklarni tez, puxta o'rganish va amaliyotda qo'llash <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. (malaka)</i></p>
4.	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• amaliy mashg'ulotlar;</li> <li>• interfoal keys-stadilar;</li> <li>• kichik guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlar qilish;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlas;</li> <li>• vedio materiyallar tayyorlash;</li> <li>• individual ishlash.</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarini to'liq o'zlashtirish, fan yuzasidan mustaqil fikr olish, mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish, nazorat turlari bo'yicha berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida topshirish.</p>
6.	<p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <p>1. B.O.Tursunov. Iqtisodiy xavfsizlik. O'quv qo'llanma. Toshkent. TDIU, 2021. 360 b.</p>

	<p>2. Iqtisodiy xavfsizlik: O‘quv qo‘llanma / Aliev Y. E., Mamatov A. A., Mamatov M. A.. - Toshkent : Iqtisodiyot, 2021. - 504 b.</p> <p style="text-align: center;"><b>Qo‘shimcha adabiyotlar</b></p> <p>3. “Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik”. B.Tursunov, J.Tuxtabayev. Toshkent - 2019 y.</p> <p>4. Iqtisodiy xavfsizlik. O‘quv qo‘llanma / Xotamov I. S., Olimov M. K., Salimov B. T.. - Toshkent : Iqtisodiyot, 2019. - 200 b.</p> <p>5. Iqtisodiy xavfsizlik : Izohli lugat (o‘zbek-rus-ingliz tillarida) / Xotamov I. S., Olimov M. K.. - Toshkent : Iqtisodiyot, 2018. - 306 b.</p> <p>6. Operations management / Nigel Slack, Stuart Chambers, Robert Johnston. – 6th ed. p. cm. ISBN 978-0-273-73046-0 (pbk.)</p> <p style="text-align: center;"><b>Axborot manbaalari</b></p> <p>7. <a href="http://www.gov.uz">www.gov.uz</a> - O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali.</p> <p>8. <a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a> - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.</p> <p>9. <a href="http://www.exponenta.ru">www.exponenta.ru</a> - Iqtisodiy-matematik modellashtirish bo‘yicha Rossiya Federatsiyasi sayti.</p> <p>10. <a href="https://advanced.jhu.edu">https://advanced.jhu.edu</a></p>
7.	<p>Fanning o‘quv dasturi Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institut Kengashining 2025 yil “ ___ ” _____ dagi “ ___ ”-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.</p>
8.	<p><b>Fan/modul uchun mas’ul:</b> Yusupova.O.R. -TTYSI “Iqtisodiyot va menejment” kafedrası assistenti</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b> Sharopova N.R. – TDIU, “Marketing ” kafedrası v.v.b. dotsent, i.f.f.d. Xolbekova F.R. - TTYSI “Iqtisodiyot va menejment” kafedrası dotsenti, i.f.f.d.</p>

**Mazkur o'quv dasturi dunyoning e'tirof etilgan xalqaro QS va THE reytinglarida nufuzli TOP-300 talikka kirgan quyidagi oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlari asosida ishlab chiqilgan.**

№	OTM nomi	QS	THE	Havolalar	Sillabusdagi mavzu nomi	Chet el universiteti Sillabuslaridagi mavzular
1	Johns Hopkins University	28	-	<a href="https://advanced.jhu.edu">https://advanced.jhu.edu</a>	12-mavzu to'liq olingan	Corruption and Democratic governance
					15-mavzu to'liq olingan	Complex Security Studies Analysis

